

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Usarov U.A.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası dotsenti, PhD

O‘zbekiston Milliy universiteti

umidjon.usarov@mail.ru

**ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A‘ZOSI, GRAF K.K. PALEN
BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA
TURKISTON O‘LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS
ETTIRILISHI**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XIX asrning ikkichi yarmi – XX asrning birinchi o‘n yilligiga qadar Turkiston o‘lkasidagi Rossiya imperiyasining olib borgan mustamlakachilik siyosatini, xususan, o‘lkadagi yer-suv munosabatlariga oid siyosatining ahvoli va uning xolatini umumlashtirgan xolda o‘rganish bo‘yicha imperiya markaziy hukumati senat a‘zosi, graf K.K. Palen boshchiligida o‘lkada o‘tkazilgan taftish komissiyasi faoliyati hamda ushbu komissiyai materiallari asosida Turkiston o‘lkasidagi yer-suv munosabatlarining ahvoli ochib berilgan.

Kalit so‘z: Turkiston, Rossiya imperiyasi, K.K. Palen, taftish, o‘lka, yer-suv, yer egaligi, sug‘orish, hisobot.

KIRISH

Turkistonda Rossiya imperiyasining hukmronligi o‘rnatilgandan so‘ng imperiya ma‘muriyati o‘lkani boshqarishning yangi yo‘llarini izlash, bu yerda iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish, Amerika paxta naviga qaramlikdan qutulish, yengil sanoat korxonalarini xomashyo bilan ta‘minlash maqsadida yer-suv munosabatlarini o‘rganishga kirishdi. Shu maqsadda o‘lkaga bir necha marotabadan turli komissiyalar jo‘natildi. Komissiyalar o‘z faoliyati davomida o‘troq va ko‘chmanchi aholi orasida mavjud yer egaligi huquqini aniqlash, hukumat uchun qaysi tartiblardan foydalanish samarali ekanligini aniqlab olish maqsadida o‘z faoliyatini yuritdi. O‘tkazilgan komissiya faoliyatida, avvalo, yer egaligining ko‘chmanchi va o‘troq aholi orasidagi turlari o‘rganildi. Meros huquqi, yer egaligida shariat qonun-qoidolari ham e‘tibordan chetda qolmadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI.

Rossiya hukumati tomonidan Turkiston o‘lkasida 1908-1909-yillarda imperiya senatining a‘zosi, graf K.K. Palen boshchiligida taftish o‘tkazish uchun komissiya tuzildi. Turkiston o‘lkasida yer egaligi va yerdan foydalanishda o‘lkaning tabiiy-geografik joylashuvi, joylarning topografiyasi muhim ahamiyat kasb etganligi bois, bu komissiya o‘lkani har tomonlama chuqurroq o‘rgandi.

Senator, graf K.K. Palen boshchiligidagi komissiya o‘z ishini 1908-yil 18-iyuldan 1909-yil 18-iyungacha davom ettirdi. Komissiyaga o‘lka xalqlari xo‘jalik hayotini to‘liq o‘rganish vazifasi qo‘yildi. Shu maqsadda taftish komissiyasi o‘lka viloyatlari, uyezdleri va deyarli barcha volostlari bilan qiziqib, ularning xo‘jalik hayotini to‘liq o‘rganib chiqdi. O‘lkadagi xo‘jalik hayoti turlari va xususiyatlariga

qarab taftish komissiyasi anketa so'rovlari o'tkazish uchun o'lkani 29 hududini tanlab oldi. Komissiya tomonidan "O'lka boshqaruvi", "Viloyat boshqaruvi", "Uyezd boshqaruvi", "Shahar boshqaruvi", "Qishloq boshqaruvi", "Sud muassasalari", "Xalq sudlari", "Xavfsizlik politsiyasi", "Qamoqxona ishi", "Soliq va to'lovlar", "Davlat mulki", "Yer xo'jaligi", "Tog' ishi", "Turkistonga ko'chirish ishi", "O'quv ishi", "Mahalliy aholining huquqiy ahvoli", "Turkistonda sug'orish ishlari" kabilar bo'yicha ma'lumotlar to'plandi[6; 7; 8; 9; 10; 11]. Bu ma'lumotlar to'plam shaklida 1910-1911 yillarda Sankt-Peterburgda nashr etildi[4. – C. 87.].

O'lkani deyarli barcha hududlarida mahalliy aholining dehqonchilik an'alarini chuqur egallaganligi bois, taftish komissiyasi o'lka hududlaridagi yerlarni sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yerlarga ajratib besh asosiy turga bo'ldi. Birinchi turga: vodiy yerlari, ikkinchi turga: vodiy-dasht yerlari, uchinchi turga: tog'oldi hududlardagi yerlar, to'rtinchi turga: tog'li hududlardagi yerlar, beshinchi turga: dasht yerlari kiritildi[8. – C. IX.].

Birinchi tur, sug'oriladigan yerlardan iborat bo'lgan Toshkent yaqinidagi Niyozbek hududi; mahalliy paxtachilik markazi hisoblangan Oltinko'l, Xakent, Andijon uyezdlari; lalmi yerlardan iborat Qirg'izqo'rg'on, Namangan uyezdlari; sholi ekishga ixtisoslashgan Qoraqalpoq va Samarqand yerlari; Samarqand yaqinidagi uzumzorlar; bog'dorchiligi bilan ajralib turgan Yaypan, Qo'qon uyezdlari; Zarafshonning quyi oqimidagi tamaki mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan Buxoroga yaqin Kalqo'rg'on va Kattaqo'rg'on uyezdlari, kam sug'oriladigan Gurlan, Xo'jand uyezdlari va chorvachilikka ixtisoslashgan Naygut-Qipchoq yerlaridan iborat bo'lgan.

Ikkinchi tur, vodiy-dasht yerlaridan iborat bo'lib, u yerlarda ekin ekiladigan lalmi yerlari ko'p bo'lgan To'rtko'l, Kattaqo'rg'on uyezdida; to'liq sug'orilmaydigan, lekin sug'orish xo'jaligidan iborat bo'lgan O'zbek va Jizzax uyezdlaridan iborat bo'lgan.

Uchinchi tur, tog'oldi hududlari bo'lib, u yerlarda lalmi yerlar nisbatan ko'p bo'lgan, biroq Oqbo'ri, Novtak, O'sh kabi uyezdlarda sug'orma xo'jalik ustun bo'lgan, tabiati bilan o'xshash bo'lgan Qo'rshob volosti kirgan.

To'rtinchi turga dengiz sathidan nisbatan balandlikda joylashgan, asosan, bug'doy yetishtiriladigan tog' hududlari kirgan.

Beshinchi tur, dasht yerlaridan iborat bo'lib, unga kiruvchi ko'chmanchilik bilan hayot kechirgan, lekin taftish komissiyasi o'z ishini olib borgan vaqtda bu yerlarda ham yer egaligi ustunlik qilgan Oqto'g'ay, Jamansir, Kazalinsk uyezdlari, ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan aholi yashagan Zang'ar, Kolimbos, Kazalinsk uyezdlari va Jizzax Chordaryosi yerlari kirgan[8. – C. IX-X.].

K.K. Palen boshchiligidagi komissiya Amudaryo bo'limining besh rayoni, xususan, Amudaryoga yaqin Sho'rxon uchastkasidagi dehqonchilik rivojlangan To'rtko'l volostida, o'zlashtirilgan qumli yerlardagi aholi yashaydigan Saribiy qishloq jamoasi yerlarida, Amudaryo deltasidagi dehqonchilik rivojlangan Chimboy va Kegeyli volostlarida, Chimboy uchastkasiga qarashli bo'lgan chorvachilik yaxshi rivojlangan Davqara volostlarida taftish ishlarini o'tkazdi[8. – C. XI]. Biroq yuqorida nomi keltirilgan hududlar to'liq ro'yxatga olinmagan, faqat 350-400 ga yaqin xo'jaligi bo'lgan rayonlar o'rganilgan. Komissiya tomonidan

tarqatilgan anketalar mahalliy aholi xo'jaligining barcha ko'rinishlariga oid bo'lgan savolnomalardan tuzilgan 300 ta savoldan iborat bo'lgan[8. – C. XI].

Taftish komissiyasi hisobotlarida yozilishicha, Turkiston o'lkasining barcha hududlari 1 533 255 kv. verstdan iborat bo'lib, u viloyatlarga quyidagicha taqsimlangan: Yettisuv viloyati – 347 910 verst, Sirdaryo viloyati – 452 840 verst, Farg'ona viloyati (Pomir bilan qo'shilganda) – 121 141 verst, Samarqand viloyati – 79 626 verst va Kaspiyorti viloyati – 331 736 verst. O'lka hududi kengligi bo'yicha Fransiya, Germaniya hamda Avstriya-Vengriya yerlariga teng bo'lgan. Geografik holatiga ko'ra esa, Ispaniya, Italiya va Bolqon yarimoroli kengligiga to'g'ri kelgan[8. – C. 1-2.].

Komissiya hisobotiga ko'ra, o'lka mayda yer egaligi va ko'chmanchi chorvachilikka ixtisoslashganligi qayd etilgan[4. – C. 87.]. Davlat budjetiga daromad keltiruvchi bu ikki soha yiliga 6,5 million rubl daromad keltirib, imperiyaning moliya hisobotida asosiy baza hisoblangan. Shu sababli o'lkadagi bu ikki sohani alohida o'rganib, uning ahvoli va ehtiyojlarini aniqlash lozim bo'lgan[8. – C. XII.].

K.K. Palen o'z hisobotlarida Turkistonning shimoliy qismida aholi ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganligi, janubda o'troq dehqonchilik ustunlik qilganligini alohida ta'kidlaydi. Bu ikki omil ham yer egaligi munosabatlariga ta'sir qilgan. Shu sababli Turkiston Rossiya imperiyasiga qo'shib olinayotgan vaqtda o'lkadagi shariat qonunlarini o'rganishi lozim edi. Bu hujjatlar, Qur'on va shariatga ko'ra, musulmon huquqshunosligining yer egaligi masalalariga oydinlik kiritar edi. Ayni paytda yerga bo'lgan xususiy mulkchilik institutlarining rivojlanishi yerga egalik va undan intensiv foydalanish natijasida sug'orma dehqonchilikni taraqqiy ettirgan. O'lka sug'orma dehqonchiligida ishtirok etadigan ikki daryo Amudaryo va Sirdaryoning dehqonchilikdagi roli katta bo'lgan va O'rta Osiyo xalqlari hayotida muhim rol o'ynagan[2. – C. 3.].

Taftish komissiyasi hisobotlarida ta'kidlanishicha, Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini egallab olgan vaqtda yerga egalikning quyidagi turlariga duch kelganlar[8. – C. 89.]:

1. Davlat yerlari (podsholik, mamluk, mamluk-podsholik) – muddatsiz foydalanilgan yoki meros qolgan yerlar bo'lib, u yerlardan yig'ilgan hosilning o'ndan bir qismini davlat xazinasiga dahyak, ushr va xiroj kabi soliq shakllarida to'lagan.

2. Mulk yerlari (xususiy mulk) – yerning xususiy ekanligini tasdiqlovchi xon tomonidan berilgan hujjatlarga ega bo'lgan yerlar. Bu huquq joylarda ba'zi o'zgarishlar bo'lishiga olib kelgan. Masalan, mulk yerlaridan desyatina o'lchovi miqdorida (“mulki xiroj”) yoki yer o'rniga qarab oldindan belgilangan miqdorda soliqlar olingan (bu Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida “tanob” yig'ini, Xiva xonligida “sog'ut” yig'ini deb atalgan).

3. Vaqf yerlari – alohida kishilar yoki xonlar tomonidan diniy tashkilotlarga hadya qilingan yerlar bo'lib, bu yerlardan olingan daromadlar, asosan, vaqf yerlarini tortiq qilgan tashkilotlarga va bir qismi vaqf tashkilotlari merosxo'rlariga o'tgan. Ulardan hech qanday soliq olinmagan.

4. So'nggi, to'rtinchisi davlatning hech kimga qarashli bo'lmagan mavlat (o'lik) yerlari. Bunday yerlar yangi yerlarning o'zlashtirilishi hisobiga kengayib borgan. Xiva xonligida "partav" deb atalib, bunday yerlar shariat qonunlariga ko'ra, "imom ruxsati bilan bu yerlarni kim o'zlashtirsa, o'sha kishi egasi bo'lishi" alohida ta'kidlangan. Bu yerlarni o'zlashtirgan shaxslar "mulk" yerlarini kengaytirib borgan. 1886 yildagi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra, bunday yerlar davlat yerlari deb yuritilgan[8. – C. 89-90.].

Shuningdek, taftish komissiyasi materiallarida ko'chmanchilarning yer egaligi masalasiga ham to'xtalib, unga ko'ra, ko'chmanchilar foydalanadigan yerlar uzoq yillar shu yerlardagi urug'larning qo'l ostida bo'lgan.

Qirg'izlarga qarashli bo'lgan yerlar urug'larga qarab bo'lingan. Qo'qon xonligidan urug'larni boshqarish yorlig'ini olgan qirg'iz xonlari va sultonlarining avlodlari o'zlariga yaxshi sharoitlarni yaratib, hukmronlikni qo'lga kiritganlar. Tyan-Shanning markaziy massivlaridagi qoraqirg'izlar bo'lsa, mayda manapliklar (knyazliklar)ga bo'linib olganlar.

Manaplar, sultonlar sun'iy sug'orish ishlarida ma'lum rol o'ynaganlar. O'zlarini oqsuyak deb hisoblagan bu sulton va manaplar ariq qazishda xonlardan ruxsat olib, keyin sug'oriladigan yerlarga xo'jayin bo'lib olganlar. Biroq, bunday holatlar hamma joylarda ham bo'lavermagan.

Turkistonning Rossiyaga qo'shib olinishi bilan o'troq aholiga xonliklar davridagi yer egaligi huquqida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Unga ko'ra, meros huquqi bilan ushlab turilgan yerlar, soliq to'lashda barcha imtiyozdan foydalangan mulk egalari barcha toifasi yo'qolib ketdi. Biroq "Turkiston o'lkasini boshqarish Nizomi"ning 255-bandiga ko'ra, imperiya manfaatlaridan kelib chiqib, o'lkadagi barcha avlodlardan meros qolgan yerlari bor o'troq aholi yerga egalik huquqini oldi. Ko'chmanchi aholi foydalanayotgan yerlar bo'lsa, davlat mulkiga aylantirildi.

XX asr boshlarida Turkistonning uch mahalliy viloyati Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand hamda Yettisuvda yerdan foydalanishning turlicha huquqlariga ega bo'lgan bir necha toifaga bo'lgan.

Shaharlar, o'troq aholi istiqomat qiladigan yerlar, xususiy yerlar, rus qishloqlari, ko'chmanchi aholi foydalanadigan yerlarni olganda uni quyidagicha taqsimlab chiqqan:

Viloyatlar	Shahar yerlari va o'troq aholi	Ro'yxatda turgan davlat yerlari	Mustaqil davlatlardagi ko'chmanchilar foydalanadigan yerlar
Sirdaryo	2,53 %	5,36 %	92,11 %
Farg'ona	25,71 %	11,38 %	62,91 %
Samarqand	27,29 %	47,94 %	24,77 %

Bu jadvaldan o'lka uyezdlaridagi o'troq dehqonchilik qay darajada rivojlanganligini bilish mumkin. K.K. Palen unga butunlayicha Farg'ona, Samarqand viloyatlarini, Sirdaryo viloyatining Toshkent uyezdini kiritadi hamda o'lkani ikki turdagi yerlarga bo'ladi. Bular o'troq aholiga tegishli bo'lgan

o'lkaniing O'sh uyezdidan Kattaqo'rg'ongacha bo'lgan janubiy yerlari, o'zlashtirilgan yerlari kam bo'lgan shimoliy yerlar[8. – C. 95.].

K.K. Palenning ko'rsatishicha, o'lka janubidagi yerlarning 25 foizini o'troq aholiga, shuncha foiz yerni davlat mulkiga, yana shuncha yer ko'chmanchilarning davlatga qarashli bo'lgan Toshkent uyezdining yuqori tog' qismlari, vodiylar hamda Samarqand viloyatining dasht yerlaridan tashqari o'zlari muddatsiz foydalanib kelgan yerlarga bo'lingan. O'lka shimolidagi yerlarni ham taqqoslaganda davlat va xususiy yerlar ko'p bo'lib, u yerlardan ko'chmanchilar muddatsiz foydalangan. Yettisuv viloyatida ham ko'chmanchilar tomonidan muddatsiz foydalaniladigan yerlar bo'lib, u muallif tomonidan to'liq ochib berilmaydi, biroq o'troq aholi yerlarning 3,64 foizini egallagan deb ta'kidlaydi[8. – C. 95-96.].

Yettisuv viloyatining yer egaligi haqidagi ma'lumotlar viloyat imperiya tarkibiga kirgandan so'ng paydo bo'ldi deb yoziladi hisobotda. Sibir va Rossiyaning Yevropa qismidan kelgan ruslar, qozoqlardan tashqari, imperiya hukmronligi vaqtida o'lka mahalliy aholisi ham bu yerlarga kirib keldi. Shuningdek, imperiya hukmronligi davrida Xitoyning Ili provinsiyasidan Taranchiga ko'chib kelganlar va xuddi shu 1881 yilda dunganlar ham kirib kelishgan. 1900 yilda qirg'izlar bu yerlarga kirib kelgan va o'troq turmush tarziga o'tib, dehqonchilik bilan ham shug'ullangan.

Kaspiyorti viloyatining umumiy yerlari 55407100 desyatini tashkil etib, sug'oriladigan yerlar 150000 desyatina atrofida bo'lgan yoki umumiy maydonning 0,27 foizini tashkil etgan. O'troq aholiga tegishli bo'lgan yerlar ko'proq Murg'ob va Tajan daryosi bo'ylaridagi Marv va Tajan uyezdlariga to'g'ri kelgan. Ashxobod uyezdida uchinchi o'rinda turgan bo'lsa, Krasnovodsk va Mang'ishloq uyezdlaridagi yerlar ozgina qismni tashkil etgan[8. – C. 98.]. Shunday bo'lsa-da, K.K. Palenning hisobiga ko'ra, shahar yerlarining eng ko'p qismi Sirdaryo viloyatiga to'g'ri kelgan[8. – C. 99.]. Sirdaryo viloyati atrofida hududlarning 3/4 qismini Muyunqum, Qoraqum, Qizilqum kabi sahrolar egallagan bo'lib, birgina Qizilqum hududining 9/10 qismi qumliklardan iborat bo'lgan, iqlimi doimo quruq bo'lgan[2. – C. 24.].

Shahar yerlari atrofida aholi tomonidan barpo qilingan bog'lardan tashqari paxta ekiladigan maydonlar, ekin maydonlari va boshqa ekin ekiladigan yerlar ham bo'lgan. Bunday joylar ko'proq Toshkent, Chimkent, Samarqand atroflarida bo'lgan. Eski shahar atrofida yerlar bir necha yillar davomida barpo qilingan bo'lib, geografik qulay joyda joylashgan bo'lgan va savdo-sotiq rivojlangan bir necha qishloqlarning qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan.

O'lkaniing uch viloyatida o'troq aholisining yer solig'i to'lovchilari ikki guruhga bo'lingan: birinchi guruhga davlat soliq tashkilotlari tomonidan ro'yxatga olingan va davlat tomonidan soliq solingan yerlar, ikkinchi guruhga o'lka imperiyaga qo'shib olingan vaqtlarda soliq tartibi bilan saqlanib qolgan yerlar. Mahalliy aholining yerdan foydalanish huquqlarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi yerlarda mahalliy aholining yerdan foydalanish huquqi to'liqligicha belgilangan. Ikkinchi guruhga kiruvchi yerlarda bo'lsa, yerdan foydalanish mahalliy huquqlar bilan belgilangan holda bo'lib, soliqlarni belgilash

ham taxminiy tarzda amalga oshiriladi. Amudaryo bo'limi, Chimkent, Avliyoota uyezdlaridagi o'troq turmush tarzini kechiradiganlar soliq to'laydigan bo'lsa, Toshkent uyezdi, Farg'ona va Samarqand viloyatidagi yerlar davlat ro'yxatiga olingan va soliq to'laydigan yerlar tarkibiga kiritilgan. Kazalinsk va Perovsk uyezdlarida bu ikki tur ham uchramaydi. O'lkaning uch viloyatidagi soliq to'lanadigan yerlar 5186606 desyatinani tashkil etgan bo'lsa, "obrok"[12] solig'iga tortilgan yerlar 108331 desyatinani tashkil etgan[8. – C. 100.].

Umuman, yerlardan olinadigan soliqlar guruhlariga ajratilgan va sun'iy sug'orishga asoslangan, irrigatsiya tarmoqlari yaxshi rivojlangan yerlar, ikkinchi guruhga yomg'ir suvi bilan sug'oriladigan yerlar yoki, mahalliy aholi tili bilan aytganda, "lalmi" yerlarga bo'lingan. Uchinchi guruhga o'zlashtirilmagan va dehqonchilik uchun noqulay bo'lgan dashtlar, botqoqliklar, toshloq yerlar, soylar bo'yidagi sel kelishi ehtimoli bo'lgan qumlik yerlar, qoyalar kirgan.

K.K. Palen rahbarligidagi taftish komissiyasi hisobotlarida ham o'lkaning irrigatsiya ishlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Unga ko'ra, mahalliy aholi o'zlashtirgan yerlar sug'orma dehqonchilikka hamda lalmi yerlarga asoslangan. Bunday yerlar Kattaqo'rg'on, O'sh va Jizzax uyezdlaridan tashqari barcha joylarda bo'lgan. Qolgan uyezdlarda topografik va gidrografik sharoitlar yaxshi bo'lganligi sababli bunday yerlar ko'proq uchragan.

Turkistonning doimiy muzlamaydigan iqlimi bu yerlarda paxta va guruch yetishtirishni jonlantirish, mevali daraxtlar ekish, uzumchilikni rivojlantirish imkonini bergan. Yog'ingarchilik kam bo'lgan yerlarda sun'iy sug'orish ishlari olib borishni ham talab etgan. K.K. Palenning yozishicha, "mahalliy dehqonlar mehnati bilan bo'sh yerlarni ekin ekish mumkin bo'lgan madaniy yerlarga aylantira oladilar. Sun'iy sug'orish tizimi bu yerlarda doimiy hosildorlik imkonini ham beradi. Mahalliy aholi irrigatsiya inshootlarini qurish va ekin ekish mumkin bo'lgan bunday yerlarni doimo o'zlashtirishga harakat qilib kelgan" [8. – C. 104.].

O'lkaning irrigatsiya inshootlari qurish imkoni bo'lmagan tog'oldi hududlarida qishki va bahorgi yog'inlar ko'magida mahalliy kuzgi bug'doy ekanlar. Lalmi yerlarda arpa va bug'doy iyun oyida pishib yetilgan Zarafshon vodiysi atroflarini egallagan Kattaqo'rg'onida bunday yerlar ko'p bo'lib, u 28,3 foizdan 51,2 foizgacha bo'lgan. O'troq aholiga tegishli bo'lgan o'zlashtirilmagan yerlarda mollar uchun yem-xashak yig'ilgan yoki xo'jalik hayotining boshqa ehtiyojlari uchun foydalanilgan. Bunday yerlar, asosan, botqoqliklar yoki katta qirlardan iborat bo'lgan[8. – C. 104.].

Samarqand viloyatida ekiladigan asosiy ekin sholi mahalliy aholisi uchun daromad keltiradigan asosiy qishloq xo'jaligi ekinlaridan biri hisoblangan. U Samarqand viloyati Samarqand, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlarining 38 volostidagi 43513 desyatina yerni egallagan. Shuningdek, bu uyezdlarda sholi ekiladigan maydonlar ko'lami turlicha bo'lgan. Samarqand uyezdi viloyatda sholi yetishtirish bo'yicha birinchi o'rinda turib, ekin yerlari 36935 desyatinani, undan keyingi o'rinda turgan Kattaqo'rg'on uyezdida 4112 desyatinani, Xo'jand uyezdida esa 2466 desyatinani tashkil etgan[5. – C. 1.]. Sholi viloyatdagi barcha sug'oriladigan yerlarda ekiladigan ekin maydonining umumiy foiziga nisbatan olganda 12 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar viloyatning sholi ko'p

yetishtiriladigan uyezdlarida quyidagi foizlarni tashkil etgan: Samarqand uyezdida uning umumiy maydonining 14,3 % iga, Kattaqo'rg'on uyezdida uning umumiy maydonining 6,2 % iga, Xo'jand uyezdida uning umumiy maydonining 8 % iga teng bo'lgan[5. – C. 1.].

Viloyatda bug'doyni faqat mahalliy aholi emas, balki ko'chib kelgan rus aholisi ham ekan, biroq ruslar bug'doy ekishda yer tarkibini, iqlimni bilmasdan, ko'p mablag' sarflab foyda keltirmaydigan tajribalar o'tkazganlar[5. – C. 1.]. Rus dehqonlari "cho'l bug'doy" nomini olgan navni iqlim yoki havoning namligi tufayli kam hosil berishini tushunmay vahima bilan qabul qilganlar. Lalmi yerlarda yetishtirilgan bug'doydan har yili sifat jihatidan yetarli darajada yuqori bo'lmagan hosil olingan. Tog'lardan uzoq bo'lgan, sug'orilmaydigan yerlarda ekilgan bug'doydan yuqori sifatga javob bermaydigan, kam hosil olingan. Tog'yonbag'ridagi sug'orilmaydigan yerlarda, jumladan, Samarqand uyezdining Chashmaob volostida, Xo'jand uyezdining O'rtepa volostida esa yirik bug'doy yetishtirilgan[1. – C. 261.].

Sholi yetishtirish Kattaqo'rg'on, Xo'jand uyezlarida nisbatan keng rivojlangan (Jizzax uyezdida suv yetishmovchiligi sabab ko'p ekilmagan). Sholi bu yerda asosiy ozuqa bo'lishi bilan birga Zarafshon daryosi bo'ylaridagi botqoqliklarda ham ekilgan hamda Rossiyaning Yevropa qismi va Buxoroga sotiladigan mahsulot turi hisoblangan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'lkada yer egaligining jamoaviy usuli bo'lgan. Asta-sekinlik bilan bu yerlar mayda xususiy yerlarga aylantirilgan. Lekin ba'zi yerlarda jamoa yerlari saqlab qolingan. Masalan, Chimkent uyezdining Qorabuloq qishlog'ida o'zlashtirilgan yerlar ikki qismga bo'lingan: bir qismi daryolar boshidan suv ichsa, ikkinchisi qismi esa Oqsuv daryosidan chiqqan ariqlar bilan sug'orilgan. O'lkada suv qishloqlar o'rtasida, keyin alohida xo'jaliklar o'rtasida bo'lingan. Suvlar bu yerda hosil olish uchun muhim bo'lganligi sababli tartib bilan taqsimlangan[3. – C. 46.].

K.K. Palen hisobotlarida ham ta'kidlanishicha, daryo boshidagi yerlar uchun taqsimlangan suvlar va daryodan chiqarilgan ariqlar suvi bilan avval o'zlashtirilgan va o'sha vaqtning o'zida jamoa o'rtasida bo'lingan. Bu yerlar mayda qismlarga bo'linib, mahalliy xalq sudyalari yorliqlari bilan tasdiqlangan holda meros qolgan. Oqsuv daryosidan chiqqan ariqlardan sug'oriladigan yerlar qo'shga qarab berilgan. Qo'shga ega bo'lmagan jamoa kishilari yer ololmagan. Foydalanilgan ariqlariga qarab jamoalar soni aniqlangan. Bunday jamoalar Chimkent uyezdining Sayram, Mankent, Qoramurt, Iqon, Qarnoq, Suzoq va Chelakqo'rg'on qishloqlarida ham bo'lgan[8. – C. 105.].

Toshkent uyezdining Pskent volosti baland dashtlardan iborat bo'lib, bu yerlarni sug'orish uchun juda katta mehnat talab qilingan. Angren daryosidan olinadigan suv Pskent atrofidagi yerlarga bormagan. Shu sababli bu hududda yerdan foydalanishning boshqa bir shakli paydo bo'lgan[8. – C. 105.].

O'troq dehqonlar foydalanadigan yerlar madaniy: sug'oriladigan va lalmi yerlardan iborat bo'lgan. O'lkaning Jizzax, Kattaqo'rg'on va O'sh uyezdlaridan sug'oriladigan yerlar lalmi yerlarga nisbatan Jizzax uyezdida 2,1 marta, Kattaqo'rg'onda 1,9 marta, O'sh uyezdida 1,2 marta kam bo'lgan[8. – C. 103.].

К.К. Пален о'lkada sug'oriladigan yerlarning lalmi yerlarga nisbatan ko'pligi, bu yerlarda topografik va gidrografik sharoitlarning qulayligi bilan bog'liq" [8. – С. 103.], deb yozadi. O'z fikrini takrorlab, muallif, "iqlimning bunday qulayligi yerlarda qimmatbaho hisoblangan paxta, sholi yetishtirishni, bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish imkonini beradi" [8. – С. 104.], deb qayd qiladi. Lalmi yerlarda bug'doy va tariq yetishtirilib, iyun oyida yig'ishtirib olish uchun qulay hisoblangan.

XULOSA

Umuman olganda, Turkiston o'lkasida mustamlakachilik siyosatini o'rnatgan Rossiya imperiyasi o'lkaning tabiiy boyliklarini o'zlashtirishda o'z manfaatlaridan kelib chiqan holda ish olib bordi. Shuning uchun ham imperiya hukumati siyosatining qanday holatda ekanligi, o'lkani yanada yaxshiroq o'rganish, barcha sohalar, xususan, yer egaligi va sug'orish ishlarining ahvoli haqida asosli va to'g'ri ma'lumotlarni to'plash uchun o'zlarining eng ishonchli vakillari rahbarligida rasmiy taftish komissiyalarini jo'natdi. Ana shunday taftish komissiyalardan biri bu Turkiston o'lkasida 1908-1909-yillarda imperiya senatining a'zosi, graf K.K. Pален boshchiligida komissiya bo'lib, ushbu komissiyalarning hisobot tarzidagi xulosalari orqali o'lkadagi holatga baho berdi hamda kelgusi faoliyatlarini davom ettirishda foydalangan.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вирский М. Зерновые хлеба Самаркандского уезда / Справочная книжка Самаркандской области. 1898 г. – Самарканд: Типография К.М. Селорова, 1899. – С. 261.
2. Дингельштедт Н. Опыт изучения ирригации Туркестанского края. Сыр-Дарьинская область. Часть 1. – СПб.: Типогр. Министерства путей сообщения, 1893. – С. 3.
3. Лыкошин Н.С. Полжизни в Туркестане: Очерки быта туземного населения. – Петроград: Т-ва "В.А. Березовский", 1916. – С. 46.
4. Махмудован Н. Развитие административного управления, социально-экономических и культурных процессов в колониальном Туркестане в начале XX века. – Ташкент: Фан, 2016. – С. 87.
5. Позняков П. Культура риса и оя экономическое значенія в Самаркандской области / Справочная книжка Самаркандской области. 1907 г. Изд. Самаркандского областного статистического комитета. Под ред. секретаря статистического комитета М. Вирского. Вып. 9. – Самарканд: Типо-литография Г.И. Демурова, 1907. – С. 1.
6. Пален К.К. Всеподданнейшая записка, содержащая главнейшие выводы отчёта о произведённой в 1908–1909 г.г. по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленым ревизии Туркестанского края. I-II части. – СПб: Сенатская типография, 1910. – 53 с.
7. Пален К.К. Земское хозяйство. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленым. – СПб: Сенатская типография, 1910. – 721 с.

8. Пален К.К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. I-II части. – СПб: Сенатская типография, 1911. – 431 с.
9. Пален К.К. Орошение в Туркестане. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К.Паленым. – СПб: Сенатская типография, 1910. – 615 с.
10. Пален К.К. Переселенческое дело. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленым. – СПб: Сенатская типография, 1910. – 430 с.
11. Пален К.К. Сельское управление. Русское и туземное. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К.Паленым. – СПб: Сенатская типография, 1910. – 226 с.
12. Obrok – ruslar tomonidan O‘rta Osiyo egallab olgandan keyin kirib kelgan soliq to‘lovi.

Усаров У.А.

PhD., доцент кафедры «Истории Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
umidjon.usarov@mail.ru

ОТРАЖЕНИЕ ЗЕМЕЛЬНЫХ И ВОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ В ОТЧЕТАХ РЕВИЗИОННОЙ КОМИССИИ ПОД РУКОВОДСТВОМ ЧЛЕНА СЕНАТА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ, ГРАФА К.К. ПАЛЕНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается колониальная политика Российской империи в Туркестане со второй половины XIX века до первого десятилетия XX века, в частности, ее политика в отношении земельных и водных отношений в регионе. Особое внимание уделяется деятельности инспекционной комиссии, созданной в Туркестане под руководством графа К.К. Палена, члена Сената Российской империи, которой было поручено изучить и обобщить состояние земельных и водных отношений в регионе на основе материалов этой комиссии

Ключевые слова: Туркестан, Российская империя, К.К. Пален, инспекция, регион, земельные и водные отношения, землевладение, ирригация, отчет.

Usarov U.A.

PhD., associate professor at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

umidjon.usarov@mail.ru

**THE REFLECTION OF LAND-WATER RELATIONS IN TURKESTAN
REGION IN THE REPORTS OF THE INSPECTION COMMISSION
HEADED BY COUNT K.K. PALEN, MEMBER OF THE SENATE OF THE
RUSSIAN EMPIRE**

ABSTRACT

This article examines the colonial policy pursued by the Russian Empire in Turkestan from the second half of the nineteenth century to the first decade of the twentieth century, particularly its policy regarding land and water relations in the region. It highlights the activities of the inspection commission conducted in Turkestan under the leadership of Count K.K. Palen, a member of the Senate of the Russian Empire, which was tasked with studying and generalizing the condition of land and water relations in the region, based on the materials of this commission.

Key words: Turkestan, Russian Empire, K.K. Palen, inspection, region, land and water relations, land ownership, irrigation, report.